



AKMEIZM VA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI TAFAKKURI: ANNA AXMATOVA HAMDA ZULFIYA MO'MINOVA IJODIDA BADIY MUSHTARAKLIK

Sharofat Ismoilova,

Qo'qon universiteti mutaxassis.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1644>

MAQOLA HAQIDA/O STAT'YE

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 82

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Akmeizm, badiiy tafakkur, qiyosiy adabiyotshunoslik, ayol ruhiyati tasviri, badiiy mushtaraklik, lirika, lirik qahramon

ANNOTATSIIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada XX asrda rus she'riyatida paydo bo'lgan akmeizm oqimining nazariy asoslari, adabiy oqimning yetuk namoyondalaridan biri bo'lgan Anna Axmatova she'riyatidagi ruhiyat va Zulfiya Mo'minova ijodidagi mushtarak va farqli jihatlar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ikki ijodkor ayol she'riyati qiyosiy adabiyotshunoslik tamoyillari asosida o'rganilib, ayol ruhiyatining tasviri, badiiy o'xshashliklar, ichki monolog poetikasi ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Shuningdek, ikki ijodkor qalamiga mansub ayrim she'riy parchalar badiiy tahlilga tortildi. Ularda ayol obrazining ifodalanishi, akmeizm va zamonaviy o'zbek she'riyatining ifoda tafakkuri atroflicha o'rganib chiqildi.

Xulosa qilib aytganda, ikki ijodkor ham ilmiy nuqtayi nazardan kam o'rganilgan va tadqiqot uchun yetarli asosga ega ijodiy salohiyat sohiblaridir. Ayniqsa, bugungi ijtimoiy jarayonlarda ayol ijodkorlar, ayolning ruhiy va ichki olamini o'rganish ilmiy tdqiqotlar uchun muhim omil bo'la oladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 82

KEYWORDS

Acmeism, artistic thinking, comparative literary studies, depiction of female psychology, artistic commonality, lyric poetry, lyrical personal

ANNOTATION

This article examines the theoretical foundations of Acmeism, a literary movement that emerged in twentieth-century Russian poetry, and discusses the common and distinctive features of the poetic world of Anna Akhmatova, one of the most prominent representatives of this movement, and the творчество of Zulfiya Muminova.

In addition, the poetry of these two women poets is studied on the basis of the principles of comparative literary studies, with special scientific attention given to the depiction of female psychology, artistic similarities, and the poetics of inner monologue.

Certain poetic fragments belonging to both authors are also subjected to artistic analysis. The study comprehensively explores the representation of the female image, as well as the expressive thinking of Acmeism and modern Uzbek poetry.

In conclusion, it should be emphasized that both poets remain insufficiently studied from a scholarly perspective, although their creative heritage provides substantial material for further research. Particularly within contemporary social processes, the study of women poets and the exploration of women's spiritual and inner worlds may become an important direction for literary scholarship.

Kirish. XX asr boshlarida jahon adabiyotida yangi modernistik oqimlarning paydo bo'lishi badiiy tafakkurning taraqqiy etishiga o'z hissasini qo'shdi. Xuddi shu davrda rus she'riyatida simbolizmga qarama-qarshi yangi "akmeizm" deb nomlangan adabiy oqim paydo bo'ldi. Yunoncha "Akme" so'zi "cho'qqi", "eng yuqori nuqta", "kamolot" degan ma'noni bildiradi. [9, 87.] Ya'ni akmeizm namoyondalari she'riyatni ramziy va mavhum tushunchalar bilan emas aniq, ravshan, hayotga yaqin va real tarzda ifodalash tarafdorlari bo'lib bo'y ko'rsatdilar. Simvolizmning mavhumlikka va ramzlarga moyil badiiyatiga qarshi estetik reaksiya sifatida shakllangan ushbu oqim tez orada tarafdor ijodkorlar tomonidan rivojlantirildi. Bu oqim vakillari badiiy tafakkur mahsullarida aniq detal va hayotiylikni ustuvor qo'yganlar. Xuddi shu davrda sharq adabiyotida ham asrlar davomida hukm surib kelgan, ramzlar asosiga qurilgan mumtoz she'riyat va tasavvuf adabiyoti shakli Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon tomonidan ilk o'zgarishlarga uchragan.

Aniqlik, soddalik, obrazlar ravshanligi bilan inson ruhiyatiga, ichki kechinmalariga asosiy e'tibor qaratgan oqim tarafdorlarining eng yetuk namoyondasi rus shoirasi Anna Axmatova hisoblanadi. Anna Axmatova ijodida inson ruhiyati, ayniqsa ayol kechinmalari o'ta nozik psixologik qatlamlarda ifodalanaadi.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida ham ayol ruhiyatini ifodalash, ichki kechinmalarni yangicha poetik shakllarda berish tendensiyasi kuchaydi. Zulfiya Mo'minova ijodi bu jarayonlarda alohida o'rin tutadi. Uning she'rlari zamonaviy o'zbek ayolning ichki dunyosi, hissiy tafakkuri va ijtimoiy-ruhiy holatini yorqin namoyon etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi Anna Axmatova akmeizmi va Zulfiya Mo'minova ijodida ayol ruhiyati tasviri o'rtasidagi mushtarakliklar hamda farqlarni ilmiy jihatdan tahlilga tortish hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Qiyosiy adabiyotshunoslik hozirda eng faol adabiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Uning vazifasi turli milliy adabiyotlar o'rtasidagi tipologik yaqinlik, estetik mushtaraklik va badiiy ta'sir masalalarini o'rganishdir. Ushbu yo'nalishning nazariy asoslari R. Bahodirovning "Qiyosiy adabiyotshunoslik asoslari" asarida batafsil yoritilgan bo'lib, unda qiyosiy tahlil metodologiyasi, poetik paralellizm

hamda adabiy aloqadorlik masalalari haqida atroflicha fikrlar bildirilgan. [3, 42] Shuningdek, Q. Yo'ldoshevning "Badiiy tahlil asoslari" kitobida poetik matnning struktur-semantik jihatdan tahlil qilish usullari ko'rsatilib, obraz, kompozitsiya, lirik subyekt va poetik tafakkur kategoriyalarining ilmiy talqini berilgan. [10, 61] Ushbu nazariy qarashlar Anna Axmatova va Zulfiya Mo'minova lirikasidagi mushtaraklikni aniqlashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

M. Qo'shjanovning "Adabiyot nazariyasi" darsligida poetik tafakkur, obrazlilik, badiiy ifoda vositalari hamda lirik asar poetikasining nazariy masalalari yoritilgan. Asarda she'riy tafakkurning individual uslub bilan uzviy bog'liqligi alohida qayd etiladi. Bu esa ikki shoir poetikasidagi individual-estetik xususiyatlarni qiyoslash uchun asos bo'la oladi. [8,94]

Akmeizmning nazariy asoslari rus adabiyotshunosligida keng tadqiq qilingan. Jumladan, Nikolay Gumilyovning nazariy qarashlari akmeizm estetikasining shakllanishida muhim manba hisoblanadi. Unda akmeizmning poetik aniqlik, konkretlik, badiiy soddalik va semantik ravshanlikka asoslanishi ta'kidlangan. Osip Mandelstamning adabiy-estetik qarashlari bayon etilgan ilmiy ishlarda akmeizmning falsafiy-estetik mohiyati ochib berilgan. Uning nazariy qarashlariga ko'ra, poetik obraz real borlik bilan mustahkam aloqada bo'lishi lozim.

Anna Axmatova ijodi rus adabiyotshunoslari tomonidan juda ko' marotaba tadqiq qilingan. Shoiraning "Стихотворения и поэмы" to'plamida ayol ruhiyatining nozik psixologik qatlamlari poetik aniqlik asosida ifodalangan. [1, 5] Adabiyotshunoslar Axmatova lirikasining asosiy belgisi sifatida ichki dramatism, ruhiy sukunat va ixcham poetik ifodani ko'rsatadilar.

O'zbek adabiyotshunosligida zamonaviy ayol poetik tafakkuri masalasi N. Karimovning XX asr o'zbek adabiyoti haqidagi tadqiqotlarida tahlil etilgan. Muallif zamonaviy o'zbek she'riyatida ayol ruhiy olamining badiiy talqini yangicha poetik shakllarda namoyon bo'layotganini qayd etadi.

Zulfiya Mo'minova esa zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan bo'lib ammo uning ijodi shu paytga qadar keng ilmiy tadqiq qilinmagan. Shoiraning "Beshiklarni asragin dunyo", "Yonayotgan ayol", "Bolaga kitob bering", "Bu kunlarni she'r qil shoirim" kabi kitoblari

tadqiqotning asosiy manbasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. To'plamdagi she'rlarda zamonaviy ayolning ruhiy iztiroblari, ichki mushohadalari va hissiy-intellektual tafakkuri poetik samimiyat orqali ifodalangan.

Rahimovning "Akmeizm poetikasining nazariy asoslari" nomli maqolasida ushbu oqimning rus she'riyati taraqqiyotidagi o'rni, uning poetik xususiyatlari va zamonaviy adabiy tafakkurga ta'siri ilmiy jihatdan asoslangan.

Shuningdek, Berdiyevning "Jahon adabiyoti tarixi" asarida XX asr rus modernistik oqimlari, jumladan akmeizmning shakllanish jarayoni tarixiy-adabiy kontekstda tahlil qilingan. [9,88]

Mazkur ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, Anna Axmatova va Zulfiya Mo'minova ijodidagi badiiy mushtaraklikni qiyosiy tahlil qilish nafaqat milliy adabiy tafakkur taraqqiyotini anglash, balki jahon va o'zbek adabiy-estetik tafakkuri o'rtasidagi tipologik aloqalarni aniqlashda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot ishida qiyosiy adabiyotshunoslikning zamonaviy metodologik tamoyillariga tayanildi. Badiiy matnlarni tahlil qilishda qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy, struktur-semantik hamda germenevtik tahlil usullaridan foydalanildi.

Qiyosiy-tipologik metod asosida Anna Axmatova va Zulfiya Mo'minova she'riyatidagi badiiy mushtarakliklar, xususan ayol ruhiyati tasviri, ichki monolog poetikasi, poetik aniqlik va hissiy tafakkur uyg'unligi tahlil qilindi. Ushbu metod ikki shoirani ijodidagi umumiy estetik qonuniyatlarni aniqlash imkonini berdi. Tarixiy-qiyosiy metod yordamida akmeizm oqimining shakllanish omillari, uning rus she'riyatidagi taraqqiyoti hamda zamonaviy o'zbek poetik tafakkuriga tipologik yaqin jihatlari o'rganildi. Bunda akmeizmning estetik tamoyillari bilan zamonaviy o'zbek she'riyatidagi poetik izlanishlar o'rtasidagi tarixiy-estetik bog'liqliklar ochib berildi.

Struktur-semantik tahlil vositasida she'riy matnlarning kompozitsion qurilishi, poetik detal, obrazlar tizimi, motivlar, metaforik qatlam va poetik sintaksis xususiyatlari o'rganildi. Bu usul har ikki shoirani poetikasining individual-estetik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

Germenevtik yondashuv orqali she'riy matnlarning ichki ma'no qatamlari, ramziy-estetik mazmuni hamda lirik subyekt ruhiyatining poetik ifodalanish mexanizmlari sharhlendi.

Tadqiqotning nazariy asosini qiyosiy adabiyotshunoslik, poetika nazariyasi, akmeizm estetikasi va zamonaviy adabiyotshunoslikka oid ilmiy qarashlar tashkil etadi.

Mazkur metodologik yondashuvlar Anna Axmatova va Zulfiya Mo'minova ijodidagi poetik mushtaraklikning estetik tabiatini chuqurroq ochib berishga imkon yaratadi.

Natijalar. Ilmiy tadqiqot manbaalarini o'rganish davomida Anna Axmatova va Zulfiya Mo'minova ijodining eng asosiy motivi ayol obrazi ekanligi ma'lum bo'ldi. Ikki ijodkor she'rlarida ham ayol ruhiyati va uning qalb kechinmalari betakror tashbehtar bilan, yuksak badiiyat bilan qalamga olinadi. Agar Anna Axmatova lirik qahramoni bo'lgan ayol timsolida biz kuchli va taqdiri zarbalariga chidamli ma'naviyati yuksak ayolni ko'ramiz.

Anna Axmatovaning lirik qahramoni oddiy, taqdir sinovlariga sabr qilib yashaydigan, romantik xayollar bilan ovunadigan ojiza ayol emas, balki doim davr bilan hamnafas tiuradigan, sinovlarga bardoshli va sinovlardan toblangan kuchli ayol hisoblanadi. Masalan she'rlaridan birida shunday yozadi:

Jiddiy boqma hamma narsaga,

Chekmay desang bir kun nadomat.

Ko'ngil qadri bilmas kimsaga,

Dilni ochmoq kerakmas albat.[2,6]

She'r tili va uslubi soda va ravonligi bilan ham ajralib turadi. Yana bir o'ziga xos jihati Anna Axmatova she'rlarida xulosa va hukmning ham qat'iyligi. Bu hamma ijodkor ijodida ham uchramaydigan jihat.

Zulfiya Mo'minova ijodida ham xuddi shunday mavzudagi va ruhiyati yaqin she'rlar talaygina. Jumladan she'rlaridan birida shoirani shunday yozadi:

O'ylama men ketsam u so'ladi deb,

Yo'lda tashlab ketsang, yo'lda gullaydi.

O'ylama men ketsam u o'ladi deb,

Ayol o'tda gullar, kulda gullaydi. [7,54]

Mazkur misralar Anna Axmatovaning lirik qahramoni ruhiyatiga juda yaqin tarzda yozilgan. Yan'ni ayolning kuchi va qudrati uning sabr-bardoshli ekanligida bo'lsa ham, doim sabrni sinab yashash ayolning ruhiyatini yemirishi va bunga javoban ayol o'zini tiklay olishini ta'kidlaydi.

Anna Axmatovada ham ayolning o'zligini tanitishga undov ruhidagi she'rlari talaygina, bu jihatdan ikki ijodkor ijodini badiiy jihatdan qiyosiy-tipologik tahlil qilish ilmiy tadqiqotimizning asosini tashkil etadi.

Muhokama. Akmeizm XX asr boshlarida rus adabiyotida shakllangan adabiy oqimlardan biri bo'lib, uning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

Birinchi, obrazlarning aniqligi va konkretligi muhim o'rin tutadi. Akmeistlar mavhum ramziylikdan voz kechib, real hayot detallariga tayanadilar.

Ikkinchi, badiiy til ixcham va sodda bo'lishi lozim. Bu oqim tarafdorlari so'z ortiqchaligi yoki jimjimador va ohangdorligini emas, balki ma'noning kuchini muhim deb hisoblaydilar.

Uchinchi, akmeizm inson ruhiy holati ichki monologlar orqali keng va ta'sirli tarzda ochib beriladi.

To'rtinchi, tarixiy va shaxsiy tajriba uyg'unlashadi. [9,104]

Anna Axmatova ijodida akmeizmning tamoyillari mukammal tarzda ifoda topgan. Uning she'rlari qisqa, ammo ma'no jihatdan nihoyatda chuqur bo'lib, har bir detal ruhiy holatni ochib beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, Anna Axmatova ijodining markazida ayol va ayolning ichki dunyosi turadi. U ayol muhabbatini faqat romantik tuyg'u sifatida emas, balki ruhiy sinov va ichki iztirob sifatida tasvirlaydi. Uning she'rlarida eng oliy darajadagi tuyg'ular ham oddiy detallar (maktub, xona, nigoh) bilan ifoda etiladi.

Jumladan Anna Axmatova she'rlaridan birida intizorlik bilan o'z yorini juda ko'p vaqtlardan beri kutayogan ayolning iztirobli holatini shunday tasvirlaydi:

Quruqshagan barmoqlar bilan

Ezg'ilardim dasturxon uchun.

Men bilgandim o'sha ondayog

Tor ekanin zamin biz uchun.[2,4]

E'tibor bersak, parcha muallifi noma'lum tarzda ham ayol kishi haqida ekanligi yaqqol sezilib turadi. Chunki juda ko'p ayollarda ruhiy siqilish holatida biror buyumni, ayniqsa, matolar ba'zan ko'ylaklar etagini, ba'zida dasturxon chetlarini burab o'yga tolish odati bor. Ayolning dasturxon uchini ezg'ilashi uning ichki olamidagi talotolardan darak bersa, "quruqshagan barmoqlar" bilan ekanligi uning ichki iztiroblari tashqi ko'rinishiga ham zarba berib ulguruganligidan dalolat beradi.

Shu o'rinda Anna Axmatova ijodining eng yetakchi xususiyatlari sifatida ruhiy siqilish, sokin tragizm, ichki monolog va adabiy oqimning ta'siri sifatida ixcham ifoda uslubini baholash mumkin.

Shuningdek, uning she'rlarida ichki monolog uslubi ustunlik qiladi. Axmatova ijodi, ayniqsa, tarixiy voqealar bilan ham chambarchas bog'langan. U yashagan davr repressiya va urushlar davri bo'lib, bu uning she'riyatiga chuqur tragizm ohangini olib kirganligi bejiz emas.

Shu bilan birga, u akmeistik aniqlikni saqlagan holda, hissiy kuchni maksimal darajaga yetkazadi. Bu jihat uni jahon she'riyatida noyob ijodkorlardan biriga aylantiradi.

Zamonaviy o'zbek she'riyati namoyandasi Zulfiya Mo'minova ijodining markazida ham ayol va ayolning ichki olami turadi. Bu jihatdan uning badiiyati Anna Axmatova bilan ijodi bilan mushtaraklik kasb etadi. Uning she'rlari zamonaviy insonning ichki kechinmalarini milliy ruh bilan uyg'unlashtiradi.

Zulfiya Mo'minova ijodining asosiy xususiyatlari sifatida: hissiy aniqlik va soddalik, zamonaviy ayol obrazining ichki portreti, ruhiy izlanish va o'zlikni anglash, ijtimoiy va shaxsiy mavzular uyg'unligi kabilarni aytish mumkin.

Zulfiya Mo'minova she'rlarida ham ayol nafaqat sevgi subyekti, balki mustaqil fikr va ichki dunyoga ega shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa zamonaviy o'zbek she'riyatida yangi bosqichni ifodalaydi.

Sen havosan, jon ber, hayot ber,

Zulmatlarni to'ldir ziyoga.

Sen mehr ber, kuch top va kechir!

Muhabbat ber, ishq ber dunyoga. [7,54] – deb yozadi "Ayol" nomli she'rida Zulfiya Mo'minova. E'tibor bersak, shoirani ayolni muqaddasligini uni yaratilish tarixiga bog'laydi. Ayolni momo Havo - jonbaxsh va yaratuvchi xilqat ekanligini yodiga soladi. Ko'plab she'rlarida ta'kidlaganidek, ayolning mehr timsoli ekanligini, hatto o'ziga zulum qilganlarni ham kechira oladigan darajada kuchli bo'lishi lozimligini aytadi. Aslida, biz muhabbat va ishq tushunchalarini dunyoning eng oliy tuyg'ularidan biri sifatida baholasak, ijodkor bu fikrning mutlaqo teskarisini ya'ni dunyoga o'sha oliy tuyg'ularni ayol berishini aytadi. Chindan ham bu undov haq va ma'nili. Zero, tuyg'ularning yaratilishi tashqi dunyodan emas, inson qalbidan boshlanadi.

Bu ikki ijodkor turli davr va turli adabiy makonda yashab ijod qilgan bo'lsa-da, ularning ijodida bir qator umumiy jihatlarni ko'rish mumkin. Jumladan:

1. Har ikkala shoirani ijodida "ayol" motivi markaziy o'rin egallaydi. Ularning she'rlari ayolning ichki hissiy olamini, ruhiy kechinmalarini va hayotiy tajribasini yoritadi.

2. Ikki ijodkor ijodida ham ortiqcha mavhum tasvirlardan qochish kuzatiladi. Bu esa ularning badiiyatiga putur yetkazmasdan, aksincha, oshirishga xizmat qiladi. Soʻzlar kam, ammo maʼno chuqur. Bu akmeizmga xos estetikaning zamonaviy oʻzbek sheʼriyatidagi davomidir.

3. Muhabbat va hijron falsafasi ikki shoiri ijodida ham oddiy hissiyot emas, balki ruhiy sinov sifatida talqin etiladi. Ayriliq esa inson ichki dunyosini ochib beruvchi asosiy poetik kuchga aylanadi.

4. Sheʼrlar koʻpincha ichki nutq shaklida yozilgan boʻlib, oʻquvchi bilan bevosita ruhiy aloqa hosil qiladi.

Xulosa. Ilmiy maqolaning xulosasi shundan iboratki, ikki ijodkorning badiiy qarashlarida mushtarakliklar koʻpligi bilan ahamiyatli. Shu bilan birga sezilarli farqlar ham mavjud. Ularni adabiy davrlar va tarixiy-ijtimoiy jarayonlar taʼsiridan kelib chiqib chuqur oʻrganish va tahlilga tortish bugungi adabiyotshunoslik sohasidagi muhim jihatlardan biri.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Axmatova Anna. Стихотворения и поэмы. -Москва: Эксмо, 2019.
2. Axmatova Anna. Sheʼrlar. Xurshid Davron elektron kutubxonasi. <https://kh-davron.uz/ijod/tarjimalar/anna-axmatova-she'rlar.html>
3. Bahodirov R. Qiyosiy adabiyotshunoslik asoslari. -Toshkent: Fan, 2021.
4. Berdiyev H. Jahon adabiyoti tarixi. -Toshkent: Oʻqituvchi, 2018.
5. Karimov N. XX asr oʻzbek adabiyoti masalalari. -Toshkent: Maʼnaviyat, 2017.

Anna Axmatova ijodida ayol ruhiyatining tasviriga bevosita tarixiy fojealar, rus jamiyati va akmeizmning taʼsiri yaqqol sezilib turadi. Zulfiya Moʻminova ijodida ham ayol ruhiyati tasviri markaziy mavzu ekanligi bilan Anna Axmatova ijodiga juda yaqin. Farqli jihati esa shoiri ijodida ayol tasviri oʻzbekona ruh va jamiyat nuqtayi nazaridan qalamga olinadi.

Anna Axmatova akmeizm poetikasining eng yirik namoyandalaridan biri sifatida jahon sheʼriyatida chuqur iz qoldirgan boʻlsa, Zulfiya Moʻminova zamonaviy oʻzbek sheʼriyatida ayol ruhiyatining yangi poetik modelini yaratgan ijodkordir.

Ularning ijodidagi mushtaraklik inson ichki dunyosini soddalik, aniqlik va hissiy chuqurlik orqali ifodalashda namoyon boʻladi. Bu esa turli madaniyat va davrlar oʻrtasida poetik dialogni yuzaga keltiradi. Natijada, Axmatova va Moʻminova ijodi jahon va milliy adabiyot oʻrtasida ruhiy-estetik koʻrik vazifasini bajaradi.

6. Moʻminova Zulfiya. Saylanma. -Toshkent: Sharq, 2020.
7. Moʻminova Zulfiya. Bolaga kitob bering. -Toshkent: Akademnashr, 2022.
8. Qoʻshjanov M. Adabiyot nazariyasi. -Toshkent: Tafakkur, 2020.
9. Rahimov B. "Akmeizm poetikasining nazariy asoslari". Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali, 2022, №4.
10. Yoʻldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019